

ONTOGENEZNING ILK BOSQICHLARIDA INSONNING PSIXIK RIVOJLANISHIGA XOS XUSUSIYATLAR

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Shukurova Ilimnur Bahtiyorjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi yo'nalishi talabasi

Erkinova Shahlo Hojiakbar qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda har bir shaxs hayoti davomida o'zining yetuklik pog'onasiga intiladi. Ushbu intilish har bir inson uchun muhim o'ringa ega. Chunki jamiyat rivojida o'z qobiliyatlarini to'laqonli tarzda namoyon qila bilish, (samoaktualizatsiya) jamiyat va keyingi avlod rivoji uchun juda muhim. O'z qobiliyatlarini namoyon qila bilish uchun esa shaxsning turli davrlarida birinchi navbatda o'zini anglash jarayoni tog'ri shakllanishi kerak.

Kalit so'zlar: Ontogenez, chaqaloq, ijtimoiy ta'sir, maktabgacha yosh, o'smir yosh, ona qorni, rivojlanish, biologik yosh.

Bolaning organizmi tinimsiz o'sadi va rivojlanadi. Ontogenez jarayonida maxsus anatomik va funksional xususiyatlar yuzaga keladi va ular yoshga oid yoki xos bolgan o'zgarishlar deb ataladi. Shunga mos holda, odamning hayot sikli yoq va ular jiddiy darajada shartlidir. Ammo bu davrlarni qismlarga bo'lish zarur, chunki bir vaqtda, lekin turli biologik yosh bilan tugilgan bolalar sport va mehnat yuklamalariga turlicha reaksiya qiladi, bu paytda ularning ish qobiliyati yuqori yoki past bo'lishi mumkin, bu esa o'z navbatida maktabdagi o'quv tarbiyaviy jarayonlarni, uni o'rab turgan atrof muhitni tashkil qilishning amaliy muammolarni yechish uchun muhimdir. Pasportda ko'rsatilgan yoshdan farqli o'laroq, yoshlar o'rtasidagi interval bir yilga teng bo'lganida, odamning biologik yoshi (yoki anatomo fiziologik yosh) odam hayotining bir necha yilini qamrab oladi, ya'ni bu muddat ichida ma'lum biologik o'zgarishlar yuz beradi.

Ayrim tadqiqotchilar davrlarga bo'lish uchun asos qilib jinsiy bezlarning yetilishini, toqima va a'zolarining osish tezligini va tabaqalanishni olsalar, ayrimlari esa skletni yetilish (suyaklar yoshi) ya'ni rentgenologik yo'l bilan skletdagi suyaklanish nuqtalarini va suyaklarni harakatsiz birikishi boshlanishini aniqlashdan foydalanish yoki qollashni tavsiya qiladilar.[1] Davrlarga bolishning mezoni sfatida markaziy asab tizimini rivojlanishini, jumladan bosh miya postlogining rivojlanish darajasidan ham ko'rsatgich sfatida foydalanish mumkunligini ilgari suradilar. Rubner o'zining

nazariyasida mezon sfatida turli yosh davrlarida energetik jarayonlarning xususiyatlaridan foydalanishni tavsiya etdi. Ayrim xollarda yoshni davrlarga bolish uchun organizm bilan atrof-muhitining oziga xos o'zaro ta'siridan mezon sifatida foydalaniladi. Yoshga oid va pedagogik psixologiyada, asosan, pedagogik mezonlarga asoslangan davrlashlardan foydalaniladi. Maktabgacha yoshdagi davrlar bolalar bog'chasidagi guruxlarga mos holda bo'linadilar. Maktab yoshi 3ta bosqichga bolinadi; kichik (1- snifdan 3-4-sniflargacha), o`rta (4-5snifdan 7-8 sinflargacha)va katta (8-sinfdan 9-sniflargacha). [2] Hozirgi zamon fanida o'sish va rivojlanish davrlari hamda ularni yosh chegaralarining umumiy holda qabul qilingan klassifikatsiyasi yoq. Shu sababli u yoki bu omillar tavfsiya qlingan o'sish va rivojlanishning davrlarga bolinish tartibi haqida munozarali fkirlarga farqli o'laroq RFA ning bolalar va osmirlar fiziologiyasi insituti tomonidan bolinishi taklif qilingan va bu bosqichlar barcha hamdostlik mamlakatlarida keng miqyosda foydalanilmoqda va darslik sfatida o`rgatilmoqda. Davrlar Ona qornidagi rivojlanish davri. Bu davrda homilaning oziqlanishi, nafas olishi tana harorati va boshqalar bevosita ona organizmiga bog'liq boladi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlik davri.1 kundan-10 kungacha(kindik tushguncha). Bu davrda bola yangi hayotga moslasha boshlaydi. Ilk bor mustaqil ravishda nafas oladi. Analizatorlar tizimi mustaqil ishlay boshlaydi. Endi tug`ilgan bolaning bo`yi 50 sm bo`lsa 1 yosh oxiriga kelib 75-80 sm ga yetadi, yani 50% dan ortishi kuzatiladi. Gavda og`irligi esa uch martaga, ya`ni yangi tug`ilgan bola bor yog`I 3,0-3,2 kg bo`lsa birinchi yil oxiriga kelib 9,5-10 kg gacha yetadi. [3] Bu davrda yangi tug`ilgan bolaning yangi sharoitga moslanishi boshlanadi bu esa rivojlanishning muhim kritik davrlaridan biri hisoblanadi.

Yangi tug`ilgan bolada ona organizmidagi nisbatan doimiy harorat sharoitidan (37 gradus C) harorati pasaygan sharoitga tushib qoladi va shu sababli ham unda issiqlik hosil bo`lishining yuqori darajasi qayd qilinadi 1 kg tirik vaznga 176,4 j hosil bo`ladi, (voyaga yetgan odamlarda esa 100,8j/kg. Yangi tug`ilgan bolaning terisi tvorogsimon moy bilan-moy bezlarining sekreti bilan qoplangan bo`ladi. Moydan tozalangandan keyin teri qizaradi va songra esa po`st tashlaydi. Bola hayotining birinchi kunlarida terisining ranggi sariqroq rangga kirishi kuzatiladi. Bu hodisa hayotining 7-10 kuniga borib yoqoladi. Ko`pchilik bolalar hayotining birinchi kunlarida dastlabki massasining 5-8% ni yo`qotadilar (150-300 gr gacha) keyinchalik tanasi massasi ortib boradi sekin astalik bilan, ikkinchi haftaning oxirida dastlabki darajaga yetadi. [4] Yangi tug`ilgan bola siydigi tarkibida moddalar almashinuvining oksidlanmagan mahsulotlari uchraydi, katta miqdorda siydik kislotasi hosil bo`ladi.siydik kislotasining tuzlari siydikni jadal sariq rangga bo`yaydi. Bolalar odatda, bir necha tug`ma shartsiz reflekslar bilan tug`iladi. Ta`sirotchisining ta`siriga amalda butun organizm bilan javob reaksiyasi qaytaradi, bu jarayonning yuzaga kelishi

markaziy asab tizimida qo`zg`alishni keng irradiatsiyasiga bog`liq. Bolaning rivojlanishi dastlabki bosqichlarida, ya`ni hali bosh miya po`stlog`ining morfologik rivojlanishi yetarlicha yetishiga ega bo`lmagan paytda, miyaning po`stloq osti tuzilmalari tomonidan boshqaruvchi reaksiyalarining generallashuvi kuzatiladi. Yangi tug`ilgan bolalarda lab, teri og`iz oldi oblastni, bo`yin, tilning shilliq pardasini retseptorlarini qo`zg`atilishiga emish so`rish refleksi javob sifatida namoyon bo`ladi. Himoya reflekslarida ko`zni yumish refleksi yaxshi rivojlangan bo`lib uning refleksogen zonasi bolaning birinchi hayoti kunlarida juda keng bo`lib qovoqlarini, kipriklarini, qosh, burunning yonbosh yuzlaridagi retseptorli hodisalarini qamrab oladi. Yoshga bog`liq holda bu reflekslarning refleksogen zonalari toraya boradi. Chaqaloqlar kaftlariga tekkanda ushlab qolish refleksi oyoq kaftining oldingi qismini qozg`otgan paytda kuchli namoyon bo`ladi. Yangi tug`ilgan bolaning terisi orqali og`riqli va haroratli ta`sirlarga reflekslar va tananing holatining o`zgartirishiga boshning qo`yilish labirint reflekslarini chaqirishi mumkun. Tovushli qo`zg`atuvchilarga yangi tug`ilgan bolalar seskanish, umumiy harakatlanish nafas va yurak qisqarishlar chastotasining o`zgarishi bilan bezovtalanish tipidagi umumiy reaksiyalar bilan javob qaytaradi. Bunday davrlarga bo`lish oziga xos kompleks belgilarni qamrab olgan; tana va a`zolarining o`lchamlari, og`irlik, skletning suyaklanishi, tishlarning chiqishi, ichki sekretiya bezlarining rivojlanishi, jinsiy yetilish darajasi va muskullarning kuchi va h.k. Ammo biologik [yosh mezonlari haqida muammo](#), jumladan, yoshga qarab davrlarga bolishning asosi bo`lib ko`rinuvchi ma`lum ahamiyatli axborot beruvchi ko`rsatkichlarni aniqlash kelgusida o`z yechimini kutmoqda. Bundan tashqari deviant xulq atvorga ega bo`lgan bolalar psixologiyasini ularning ruhiy holatini sabab va oqibatlarini o`rganishda yuqoridagi manbaalarning ahamiyatli jihatlari mavjuddir. [4] Har bir yosh davrlari o`zining spetsifik xususiyatlariga ega. bir yosh davridan ikkinchisiga o`tish jarayoni shaxsiy rivojlanishning ma`lum keskin o`zgaruvchan bosqichi yoki kritik davri deb qaraladi.

Xulosa

Yosh davrlari avvalom bor xar bir yosh avlod va keksalar xayoti davomida o`tadigan xolat yoki davrdir har bir inson kim bo`lishidan qatiy nazar shu davrlardan o`tadi. Uning shu davrlardan qay darajada o`tishi ya`ni o`sishi, rivojlanishi, dunyo qarashi, aqliy yetuk bo`lib yetilishi bu avvalom bor uning ota-onasi, xayot yo`li, qanday oilada tug`ilgani va o`zining qiziqishlari intilishlariga bog`liq bo`ladi deb o`y layman. Chunki bolani dunyoga keltiradigan uning ota-onasidir. Agar ota-ona sog`lom bo`lsa undan sog`lom farzand dunyoga keladi va uning xayot yo`li tanlashi o`sishi va rivojlanishiga, ota-onasi xissasi juda ham katta bo`ladi, chunki yuqorida aytib o`tilganidek. Yangi tug`ilgan chaqaloqlik paytidan to o`zining aqli bilan ish ko`radigan paytigacha unga ota-ona ko`proq yordam beradi. Bolaning o`sishi

rivojlanishi nafaqat o`ziga balkim oilasiga, atrof muxitiga va oziqlanishiga bog`liq. Chunki oila tinch bolsa, atrof-muxiti toza ozoda bo`lsa oziqlanishi yaxshi bolsa bola to`liq o`sadi va rivojlanadi. Ayniqsa o`smir yoshga yetganda bolaning turli xildagi psixologik xususiyatlari, xususan uning intellectual faoliyatiga ham kata ta`sir ko`rsatishi muhimdir.[5] Yana bir asosiy bola o`sib rivojlanishiga qarshilik qiladigan narsa mani fikrim bo`yicha unga mehr yetishmasligidir, chunki mexr ko`rmagan bolaligini his qila olmagan bola to`liq o`sib ma`naviy va aqlan o`sib una olmaydi. Agar yuqorida keltirilgan narsalar toliq amalga oshirilsa bola o`sadi, ulg`ayadi, yetuk rivojlanadi shunday ekan ota onalar, va o`zimiz yetuk bo`lib yetishib, yosh davrlarimizga tog`ri kelishimiz uchun xarakat qilishimiz kerak. To tug`ilib 70-80-90 yoshga borishimiz o`zimizning yosh davrlarimiz paytida xarakat qilib uzoq va sog`lom yashashga intilishimiz kerak. Albatta to`g`ri ovqatlanish [to`g`ri hayot tarzini olib](#), borish sport bilan shug`ullanishdir. Rivojlanish xam osish bilan bir vaqtda boladigan holat rivojlanish uchun xam shu narsalar. Shu yerda bir ajoyib so`z esimga keldi uzoq yashaging kelsa yoshligingda yugur degan. Kelajakda hammmiz ota ona bo`lamiz qarimiz yosh davrlarini bilib olish nafaqat ozimizga balkim, tug`ilajak farzandlarimiz o`sib yuksalishi uchun, ota-onamiz uchun va o`zimiz uchun katta keraklik bo`lgan ma`lumotdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya: darslik/ Z.T. Nishanova va boshq. — Toshkent: « O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018.
2. E. G`oziyev. Ontogenez psixologiyasi/darslik /. Toshkent: "NIF MSH", 2020.
3. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o`qitish metodikasi. O`quv qo`llanma.-T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2006.
4. Shukurova, I. (2023). CHILDREN WITH DEVIANT BEHAVIOR. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(12), 274-279.
5. Shukurova, I. (2024). PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF SOCIAL INTELLIGENCE IN ADOLESCENCE. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(1), 65-69.